

2026-yilda mahalliyashtirish dasturi doirasida amalga oshirilgan ko'rsatkichlar

2026-yil yanvar-iyun oylarida mahalliyashtirilgan mahsulotlarni ishlab chiqarish bo'yicha tasdiqlangan rejaga muvofiq, joriy yil mobaynida 88 ta (grafik bo'yicha 88 ta) loyiha bo'yicha **808,6** mlrd.so'mlik yoki davr prognoziga nisbatan 100,5 %ga mahsulotlar ishlab chiqarilib, 2025 yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 115,1 %ni tashkil etdi.

Xususan, dastur doirasida yangi turdagi yirik maydalash tegirmoni, yangi turdagi burg'ilash uskunasi va ekskavatorlar uchun yirik bo'g'inlari hamda butlovchi va ehtiyot qismlari kabi yangi turdagi importga o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarildi.